

18. Ko'p xonali sonlarni ayirish

Yondosh mavzu:
Sirdaryo viloyati

Sonlarni ayirish,
sinflar va xonalar



1. Amallarni bajaring. Sonlarni amallarning bajarilish tartibi bo'yicha joylashtiring. Elektr energiyasi qaysi qimmatbaho tosh nomi bilan atalishini bilib oling.

$$78 + 9 \cdot (921 - 827) + (681 - 645) : 9 - 147$$

R 4

H 846

O 781

B 928

A 36

A 924

M 621

Q 94



2. Masalalarga ifodalar tuzing va savollarga javob bering.

a) Elektr stansiyasi bir hududdagi 1 716 ta, boshqa hududdagi 3 318 ta uyni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Elektr stansiyasi jami qancha uyni energiya bilan ta'minlaydi?

b) Sirdaryo elektr stansiyasi qurilishi 1966-yilda boshlangan va 1981-yilda tugallangan. Stansiya necha yilda qurilgan?



3. Kecha elektr stansiyasiga 315 ming litr, bugun esa kechagidan 148 ming litr kam mazut keltirildi. Shu ikki kunda qancha mazut olib kelingan?



4. Amallarni sinflar bo'yicha bajaring.

a) 36 mln 589 ming 500 – 12 mln 345 ming 230

b) 23 mln 120 ming 218 + 14 mln 87 ming 225

d) 420 mln 25 ming 407 – 238 mln 17 ming 189

18. Ko'p xonali sonlarni ayirish

Bir ko'p xonali sondan ikkinchisini ayirish uchun:

- 1) sonlarni ustun shaklida, har bir xona raqamlarini kamayuvchi son raqamlari tagiga tushirib yozing;
- 2) har bir xonadagi sonlarni o'ngdan boshlab ayiring. Agar xonadagi kamayuvchi ayriluvchidan kichik bo'lsa, undan oldingi katta xonadan qarz oling. Qarzni nuqta bilan belgilab qo'ying;
- 3) joriy ketma-ketlikdan olingan qarzni o'nlik sifatida belgilang, uni kamayuvchiga qo'shing. Ayirishni bajaring.



		.	10			.	10			.	10	.	10	10			.	9	9	9	9	10	
		6	1	7	8	7	3			9	1	7	0	8			8	0	0	0	0	0	
		–	2	5	4	3	5	6		–	8	9	2	6	9		–	3	9	1	2	4	7
		3	6	3	5	1	7			2	4	3	9			4	0	8	7	5	3		

5. Ifodalarning qiymatini toping.

$$\begin{array}{r} 276\ 890 \\ - 114\ 349 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 980\ 232 \\ - 145\ 118 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 600\ 200 \\ - 256\ 982 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 7\ 000\ 000 \\ - 993\ 378 \\ \hline \end{array}$$

6. Tenglamalarni tekshirish bilan yeching.

$$x + 346\ 900 = 820\ 520$$

$$10\ 000\ 000 - y = 220\ 360$$

7. Jadvaldan foydalanib, savollarga javob bering.

- a) Guliston aholisi 1991-yildan 2019-yilgacha qanchaga ortgan?
- b) Shu davr oralig'ida necha yil o'tgan?

Guliston aholisi	
1970-yil	31 000
1991-yil	54 000
2010-yil	77 300
2019-yil	97 600

18. Ko'p xonali sonlarni ayirish



8. Blitz topshiriq. Hisoblang. Quyosh nuridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan elektrostansiyalar qanday ataladi?

A $8 \cdot 9$

G $3 \cdot 3$

D $7 \cdot 5$

E $6 \cdot 8$

J $9 \cdot 10$

Z $2 \cdot 5$

I $5 \cdot 9$

K $7 \cdot 7$

L $8 \cdot 8$

M $5 \cdot 5$

H $6 \cdot 7$

O $4 \cdot 9$

Q $10 \cdot 5$

R $4 \cdot 8$

S $1 \cdot 0$

T $7 \cdot 9$


U $3 \cdot 4$

Y $5 \cdot 8$


9	48	64	45	36	50	12	32	45	64	25	72
---	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----




9. Quyosh batareyalari nurni tutib oladigan oynalardan tashkil topgan. Batareya oynasining bir qismi singan. Singan oynalarni almashtirish uchun qaysi detallardan foydalanish mumkin?



1



2



3



4



10. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $982\ 189 - (531\ 405 - 62\ 798) + 230\ 080$

b) $1\ 000\ 000 - (134\ 099 + 226\ 088 - 23\ 400)$



11. Viloyatdagi barcha maktablarning 4-sinfida 23 ming 405 nafar o'g'il bola va 22 ming 567 nafar qiz bola, 3-sinflarida esa undan 2 ming 760 nafar kam bola o'qiydi. 3- va 4-sinflarda jami qancha o'quvchi o'qiydi?